

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**MOLIYA KAFEDRASI**

**SU'GURTA NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

**O'QUV – USLUBIY MAJMUA**

**Bilim sohasi:** **200000** -Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

**Ta'lif sohasi:** **230000** - Iqtisod

**Ta'lif yo'nalishi:** **5230600** - Moliya

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan  
2018 yil "\_\_\_" \_\_\_\_ dagi "\_\_\_"-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fan  
dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

**G.M.Raximova** Termiz davlat universiteti Moliya kafedrasи o'qituvchisi

**Taqrizchi:**

**O.Q.Xatamov.** Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasи kafedra mudiri  
iqtisodiy fanlar doktori

Termiz davlat universiteti Ilmiy-Uslubiy kengashining \_\_\_\_ 2018 dagi  
\_\_\_\_-sonli bayoni.

## MUNDARIJA

Nº	O'quv-uslubiy majmua bo'limlari	bet
<b>1.</b>	<b>Ma'ruzalar matni</b>	
1.1.	Milliy iqtisodiyotda sug'urtaning o'rni va roli	
1.2.	Sug'urtaning asosiy tushunchalari va tamoyillari	
1.3.	Sug'urta fondi nazariyasi	
1.4.	Sug'urta klassifikatsiyasi	
1.5.	Mustaqillik yillari O'zbekistonda sug'urtaning rivojlanish bosqichlari	
1.6.	Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada risklarni boshqarish. Sug'urta risklarni boshqarishning muhim usuli	
1.7.	Sug'urta munosabatlarini tashkil etish shakllari	
1.8.	Islom sug'urta tizimi nazariyasi	
1.9.	Mulkiy manfaat-sug'urta himoyasining ob'ekti	
1.10.	Sug'urta tashkilotining tashkiliy asoslari	
1.11.	Sug'urta tashkilotining moliyasi	
1.12.	Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliya	
1.13.	Sug'urta bozori va uni rivojlanish qonuniyatları	
1.14.	Sug'urta bozorini tartibga solish	
1.15.	Chet mamlakatlar sug'urta bozoriga umumiy tavsif	
<b>2.</b>	<b>Amaliy mashg'ulot</b>	
2.1.	Milliy iqtisodiyotda sug'urtaning o'rni va roli	
2.2.	Sug'urtaning asosiy tushunchalari va tamoyillari	
2.3.	Sug'urta fondi nazariyasi	
2.4.	Sug'urta klassifikatsiyasi	
2.5.	Mustaqillik yillari O'zbekistonda sug'urtaning rivojlanish bosqichlari	
2.6.	Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada risklarni boshqarish. Sug'urta risklarni boshqarishning muhim usuli	
2.7.	Sug'urta munosabatlarini tashkil etish shakllari	
2.8.	Islom sug'urta tizimi nazariyasi	
2.9.	Mulkiy manfaat-sug'urta himoyasining ob'ekti	
2.10.	Sug'urta tashkilotining tashkiliy asoslari	
2.11.	Sug'urta tashkilotining moliyasi	
2.12.	Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliya	
2.13.	Sug'urta bozori va uni rivojlanish qonuniyatları	
2.14.	Sug'urta bozorini tartibga solish	
2.15.	Chet mamlakatlar sug'urta bozoriga umumiy tavsif	
<b>3.</b>	<b>Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari</b>	
<b>4.</b>	<b>Glossariy</b>	
<b>5.</b>	<b>Ilovalar</b>	
5.1.	Fan dasturi	
5.2.	Ishchi fan dasturi	
5.3.	Tarqatma materiallar	
5.4.	Testlar	
5.5.	Baholash mezonlari	

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**MOLIYA KAFEDRASI**

# **Sug'urta nazariyasi va amaliyoti**

**fanidan**

**MA'Ruzalar matni**

Tuzuvchi: o'q. G.M.Raximova

## **Mavzu-1. Milliy iqtisodiyotda sug'urtaning o'rni va roli**

### **Reja:**

1. Sug'urta jamiyatdagi iqtisodiy zararlarni kamaytirish va bartaraf etishning muhim vositasi.
2. Sug'urta munosabatlarining paydo bo'lishidagi shart-sharoitlar.
3. Dastlabki sug'urta tashkilotalarining vujudga kelishi.
4. Sug'urtaning iqtisodiyotdagi ahamiyati.

### **1.Sug'urta jamiyatdagi iqtisodiy zararlarni kamaytirish va bartaraf etishning muhim vositasi.**

Sug'urta ijtimoiy munosabatlar tarixiy kategoriyalardan biridir. U jamiyat qurilishining ilk davrlaridan yuzaga kelib, asta sekin ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas hamroxiga aylandi. Sug'urta iborasining birlamchi ma'nosi «qo'rquv» («strax») so'zi bilan bog'liqdir. Mulk egalari bir-birlari bilan ishlab chiqarish munosabatlariga kirishar ekanlar, mulkining saqlanishiga, tabiiy ofatlar, yong'in, o'g'irlilik va iqtisodiy hayotning boshqa ko'zda tutilmagan xavf-xatarlari natijasida yakson bo'lishi yoki yo'qotilishiga nisbatan qo'rquv xis etganlar.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri – bu mulk egasi va tovar ishlab chiqaruvchining moddiy farovonligi uchun xavotirlanishining asosiy sababchisidir. Shu asosda moddiy zararni manfaatdor mulk egalari o'rtasida birgalikda qoplash g'oyasi yuzaga keldi.

Ko'rilgan zararni qoplashning ancha oddiy shakli natural sug'urta bo'lган. Don, yem-xashak va boshqa bir turdag'i oson taqsimlanadigan mahsulotlar hisobidan alohida talofat ko'rgan dehqon xo'jaliklariga moddiy yordam ko'rsatilgan. Bunday sug'urta, albatta, bir qancha chegaralangan bo'lib, keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan o'z o'rnini pul shaklidagi sug'urtaga berdi.

Rivojlangan jamiyat sharoitida sug'urta mulkchilikning barcha shakllarini, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar daromadlari va boshqa manfaatlari himoyasining asosiy vositasiga aylandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda va aholini ko'ngilsiz hodisalardan himoya qilishda sug'urtaning o'ziga xos muhim o'rni bor. Sug'urta ishlab chiqarishning zarur unsurlaridan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim iqtisodiy dastaklaridan hisoblanadi. Sug'urta bozori mulkchilikning deyarli barcha shakllarini tabiiy ofatlardan saqlashda, xilma-xil falokatlar atijasida odamlarga yetkazilgan zararlarni qoplashda moddiy jihatdan yordam beradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobjiy fikrlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Endilikda har bir xo'jalik ob'ektining tashkilotchisi o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan samarali foydalanish uchun fidokorona harakat qilish bilan cheklanib qolmay, favqulodda va tasodifiy zararlarning natijasida yetkazilishi mumkin bo'lган kamomadlarni tiklash, ularning oldini olish tadbirlarini ko'rishga ham intilmoqda. Shuning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaga bo'lган talab kuchaya boshladi.

Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida davlatni aql-idrok bilan boshqarish xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratligini ko'zda tutish lozimligiga amal qilib, sug'urta sohasida faqat mamlakat miqyosida emas, balki tashqi munosabatlarda ham qator tadbirlar amalga oshirilganligi ko'rsatib turibdi. Jumladan chet ellik investorlarga yordam berish maqsadida «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tashkil qilinib, AIG (AQSh) kompaniyasi bilan birga siyosiy xavf-xatarlardan sug'urtalash bøyicha «O'zbekinternest Interneyshl» qo'shma sug'urta kompaniyasi ta'sis etilgani qayd qilib o'tildi. Shu bilan birga, tashqi sarmoyalarni kqoproq jalb qilish maqsadida sug'urtalashning tayanch stavkalari xalqaro amaliyotda qabul qilinganidan ancha past ekanligi ta'kidlandi.

Sug'urtaga tegishli bo'lган qayta taqsimlash munosabatlari bir tomondan sug'urta fondini shakllantirish, ikkinchi tomondan shu fonddan sug'urta qatnashchilarini ko'rgan zararini qoplash bilan bog'liqdir.

Sug'urta – ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liqdir. Normal takror ishlab chiqarish jarayonining muhim sharti uning uzliksizligi va to'xtovsizligi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning doimiy yangilanib borishi insonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda, shu jumladan rivojlangan jamiyatda ham mavjud ehtiyojlarini qondirish uchun zarurdir.

Agarda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulodda hodisalarning (yong'inlar, portlashlar, epidemiyalar va b.) salbiy oqibatlari ta'sirida to'xtasa yoki buzilsa, u holda jamiyat avvalo turli oldini olish tadbirlarini amalga oshirishga, mabodo ular ko'zlangan natijani bermasa, u holda yetkazilgan moddiy zararni qoplashga, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning normal sharoitlarini qayta tiklashga majbur bo'ladi.

Inson va tabiiy ofatlar o'rtaсидаги qarama-qarshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish va lokalizatsiya qilish, hamda yetkazilgan zararni so'zsiz qoplash bøyicha insonlar o'rtaсидаги munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu ob'ektiv munosabatlar insonlarning erishgan hayot darajasini saqlab qolishga bo'lgan real va mavjud ehtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yig'indisi ijtimoiy ishlab chiqarishni sug'urtaviy himoyalash iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi.

Sug'urta iqtisodiy kategori sifatida moliya kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo, moliya to'laligicha daromadlarni taqsimlash bilan bog'liq bo'lsa, sug'urta esa, faqatgina qayta taqsimlash munosabatlarinigina qamrab oladi.

Sug'urtaning xususiyatlarini ochib beruvchi belgilarini quyidagicha keltirishimiz mumkin:

1. Sug'urtada to'satdan, oldindan ko'zda tutilmagan va yengib bo'lmaydigan holatlar, ya'ni sug'urta holatlari ehtimoli mavjudligi bilan asoslanuvchi qayta taqsimlash pul munosabatlari yuzaga keladi.

2. Sug'urtada ko'rilgan zararni sug'urta ishtirokchilari, ya'ni sug'urtalanuvchilar o'rtaсидада qoplash amalga oshiriladi. Zararni bunday qoplash usuli zarar ko'rvuchi xo'jaliklar soni doimo sug'urta ishtirokchilari sonidan kam bo'lish ehtimolligiga asoslanadi, ayniqsa ishtirokchilar soni yetarlicha katta bo'lganda.

Zararni bunday qoplashni tashkil qilish uchun maqsadga yqnaltirilgan sug'urta fondi tashkil qilinadi. Bu fond sug'urta ishtirokchilarining badallari hisobidan shakllantiriladi. Sug'urta fondining mablag'lari faqatgina uni tashkil qilganlar o'rtaсидада ishlataladi, sug'urta badalining hajmi esa, har bir qatnashchining zararni qoplashdagi ulushini bildiradi. Shuning uchun, sug'urta qatnashchilarining doirasi qanchalik keng bo'lsa, sug'urta badalining hajmi shunchalik oz va sug'urta ham samarali bo'ladi. Agarda sug'urtada millionlab sug'urtalanuvchilar ishtirok etsa va yuz millionlab

ob'ektlar sug'urtalansa, u holda minimal badallar hisobiga maksimal zararlarni qoplash imkonli paydo bo'ladi.

3. Sug'urta zararlarni qoplashni hududiy birlik va ma'lum vaqt davomida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bunda yil davomida sug'urtalanuvchi xo'jaliklar o'rtaсидада sug'urta fondini hududlar bøyicha samarali qayta taqsimlash uchun yetarlicha katta hudud va anchagini sug'urtalashga tegishli ob'ektlar talab qilinadi. Faqatgina mazkur shartga rioya qilish bilangina katta hududlarni qamrab oluvchi tabiiy ofatlar yetkazgan zararlarni qoplash imkonli bo'ladi.

Zararni sug'urta yordamida qoplash ma'lum vaqt davomida amalga oshiriladi, chunki ixtiyorli sug'urta doimo muddat bilan chegaralanadi.

*Sug'urta – bu uning qatnashchilarini o'rtaсидада ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mqljallangan maqsadli sug'urta fondlarini badallar hisobidan shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari yig'indisi.*

Sug'urtaning iqtisodiy mohiyatiga uning funktsiyalari mos keladi. Ular sug'urtani moliya tizimining bir bo'g'ini sifatida xususiyatlarini oydinlashtirishning tashqi shakllari hisoblanadi.

Sug'urtaning to'rtta funktsiyasi mavjud:

1. Tavakkalchilik.

2. Oldini olish.

3. Jamg'arma.

4. Nazorat.

Asosiysi tavakkalchilik funktsiyasi hisoblanadi, chunki sug'urtaviy tavakkal zarar ehtimolligi sifatida talofat ko'rgan xo'jaliklarga pullik yordam ko'rsatish bqyicha sug'urtaning asosiy yqnalishi bilan bevosita bog'liq. Aynan tavakkalchilik funktsiyasining amal qilish doirasida sug'urta ishtirokchilari o'tasida bo'lishi mumkin bo'lgan sug'urta hodisalarini oqibatlari bilan bog'liq pul shaklidagi qiymatning qayta taqsimlanishi rqy beradi.

Oldini olish funktsiyasi sug'urta fondi mablag'larining bir qismi hisobidan sug'urta tavakkalchilagini kamaytirish bqyicha tadbirlarni moliyalashtirishga yqnaltirilgan. Hayot sug'urtasida sug'urta kategoriyasi kredit kategoriyasi bilan hayotni ma'lum muddatgacha sug'urtalash shartnomalari bqyicha mablag'larni jamg'arishda ancha yaqinlashadi. Hayot sug'urtasi orqali pul mablag'larini jamg'arish oilaviy sharoitda sug'urtaviy himoyaga bo'lган ehtiyoj bilan bog'liqdir. Shu bilan sug'urta jamg'arish funktsiyasini ham bajarishi mumkin.

Sug'urtaning nazorat funktsiyasi sug'urta fondini qat'iy maqsadli shakllantirilishi va uning mablag'laridan to'g'ri foydalanishdan iborat. Mazkur funktsiya yuqorida uch spetsifik funktsiyalardan kelib chiqadi va konkret sug'urta munosabatlarida ular bilan birga namoyon bo'ladi. Nazorat funktsiyasiga mos ravishda qonunchilik va instruktiv hujjatlar asosida sug'urta amallarini to'g'ri bajarilishi ustidan moliyaviy sug'urta nazorati amalga oshiriladi.

## **2. Sug'urta munosabatlarining paydo bo'llishidagi shart-sharoitlar.**

Sug'urta ijtimoiy munosabatlar tarixiy kategoriyalaridan biridir. U jamiyat qurilishining ilk davrlaridan yuzaga kelib, asta sekin ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas hamroxiga aylandi. Sug'urta iborasining birlamchi ma'nosi «qo'rquv» («strax») so'zi bilan bog'liqdir. Mulk egalari bir-birlari bilan ishlab chiqarish munosabatlariga kirishar ekanlar, mulkining saqlanishiga, tabiiy ofatlar, yong'in, o'g'irlik va iqtisodiy hayotning boshqa ko'zda tutilmagan xavf-xatarlari natijasida yakson bo'lishi yoki yo'qotilishiga nisbatan qo'rquv xis etganlar. Ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri – bu mulk egasi va tovar ishlab chiqaruvchining moddiy farovonligi uchun havotirlanishining asosiy sababchisidir. Shu asosda moddiy zararni manfaatdor mulk egalari o'tasida birgalikda qoplash g'oyasi yuzaga keldi. Ko'rilgan zararni qoplashning ancha oddiy shakli natural sug'urta bo'lgan. Don, yem-xashak va boshqa bir turdag'i oson taqsimlanadigan mahsulotlar hisobidan alohida talofat ko'rgan dehqon xo'jaliklari moddiy yordam ko'rsatilgan. Bunday sug'urta, albatta, bir qancha chegaralangan bo'lib, keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan o'z o'mini pul shaklidagi sug'urtaga berdi.

Rivojlangan jamiyat sharoitida sug'urta mulkchilikning barcha shakllarini, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar daromadlari va boshqa manfaatlari himoyasining asosiy vositasiga aylandi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda va aholini ko'ngilsiz hodisalardan himoya qilishda sug'urtaning o'ziga xos muhim o'rni bor. Sug'urta ishlab chiqarishning zarur unsurlaridan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim iqtisodiy dastaklaridan hisoblanadi. Sug'urta bozori mulkchilikning deyarli barcha shakllarini tabiiy ofatlardan saqlashda, xilma-xil faloqatlar natijasida odamlarga yetkazilgan zararlarni qoplashda moddiy jihatdan yordam beradi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobjiy fikrlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Endilikda har bir xo'jalik obyektining tashkilotchisi o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan samarali foydalanish uchun fidokorona harakat qilish bilan cheklanib qolmay, favqulodda va tasodifiy zararlarning natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan kamomadlarni tiklash, ularning oldini olish tadbirlarini ko'rishga ham intilmoqda. Shuning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaga bo'lgan talab kuchaya boshladi.

Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari bilan bevosita bog'langan. Shunday ekan ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatgan tabiiy ofatlar bozor iqtisodiyoti

yo‘nalishlarini chetlab o‘ta olmaydi. Sug‘urta ko‘p tarmoqli xo‘jaliklarnig mol-mulkini saqlashda va tiklashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Inson va tabiiy ofatlar o‘rtasidagi qarama-karshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va bashka ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish va lokalizatsiya qilish, hamda yetkazilgan zararni suzsiz qoplash bo‘yicha insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu obyektiv munosabatlar insonlarning erishgan hayot darajasini saqlab kolishga bo‘lgan real va mavjud ehtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yigindisi ijtimoiy ishlab chiqarishni sug‘urtaviy himoyalash iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish va mustaqillik talablari asosida sug‘urta sohasida quyidagi sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ldi.

*Birinchidan*, sug‘urtani boshqarishda markazlashgan tartib o‘rniga markazlashmagan tartib joriy qilindi. Mustaqil sug‘urta tizimi barpo qilindi. Sug‘urtani boshqarish respublika miqyosida amalga oshiriladigan bo‘ldi. Ular O‘zbekiston Moliya vazirligi tarkibidan chiqib, davlat bosh islohotchi bo‘lgani holda “O‘zagrosug‘urta”, “Kafolat” kabi davlat aksionerlik sug‘urta kompaniyalariga aylantirildi. “Madad” sug‘urta agentligi, “O‘zbekinvest” EIMSKlari tashkil etildi. Hozirda respublikamizda 30 ta (2009-yil 1 avgust holatiga) sug‘urta kompaniyasi bor.

*Ikkinchidan*, alohida sug‘urta haqida qonun qabul qilinib, unda respublikamizning o‘ziga xos xususiyatlari e’tiborga olindi.

*Uchinchidan*, xorijiy mamlakatlarda sug‘urta tashkilotlari bilan hamkorlik qilish kuchaydi, ular ishtirokida qo‘shma sug‘urta kompaniyalari barpo qilindi. Respublika sug‘urta tashkilotlari jahon sug‘urta tashkilotlari qatoridan joy oldi.

*To‘rtinchidan*. Sug‘urta mablag‘laridan investitsiya maqsadlarida foydalanish asosida ularning moliyaviy ahvoli yaxshilandi. Xorijiy mamlakatlar mablag‘laridan investitsiya maqsadlarida foydalanishda sug‘urta tashkilotlarining vositachilik roli vujudga keldi.

*Beshinchidan*, sug‘urta tashkilotlari bilan kredit muassasalarining hamkorligi kuchaydi. Korxonalar tomonidan bankdan olingen qarzlarni o‘z vaqtida qaytarishga qaratilgan sug‘urta faoliyati kengaya borib, u qishloq xo‘jaligi korxonalariga nisbatan ham joriy qilindi.

*Oltinchidan*, oldingi yillarga nisbatan majburiy sug‘urta doirasi qisqarib. Ixtiyoriy sug‘urta tadbirlari kengaydi. Qishloq xo‘jaligida majburiy sug‘urta qayta qurilib, sug‘urtalashda kreditning roli kuchaydi.

*Ettinchidan*, sug‘urtaning xalq farovonligini yaxshilashdagi roliga alohida ahamiyat berila boshlandi. Shu munosabat bilan indeksatsiya tadbirlari o‘tkazildi. Ixtiyoriy shaxsiy sug‘urtaning shartlari ko‘pchilik hollarda qaytadan ko‘rib chiqildi, turar joy, uy-ro‘zg‘or, qo‘shimcha pensiya, tomorqa sug‘urtasi va boshqa sug‘urta xillari o‘zgartirildi va yangilari joriy qilindi.

*Sakkizinchidan*, bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda tadbirkorlikning muhim ahamiyatiga alohida e’tibor berilib, sug‘urtaning yangi xillarini amalga oshirishga kirishildi.

*To‘qqizinchidan*, mustaqillik yillarida javobgarlik sug‘urtasining ayrim xillari joriy qilindi, shuningdek garovga qo‘yilgan mol-mulk sug‘urtasi haqida alohida dasturi amallar qabul qilindi.

*O‘ninchidan*, sug‘urta faoliyati bilan qimmatli qog‘ozlar o‘rtasida tegishli munosabat o‘rnatildi. Sug‘urta tashkilotlari ham o‘z qimmatli qog‘ozlarini tarqatish huquqiga ega bo‘ldilar va shu asosda aksiyadorlarning huquqlari belgilanib, ularning idora qilish usullari aniqlandi.

Sug‘urta sohasida faqat mamlakat miqyosida emas, balki tashqi munosabatlarda ham qator tadbirlar amalga oshirilganligi ko‘rsatib turibdi. Jumladan chet ellik va mahalliy investorlarga yordam berish maqsadida «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi tashkil qilinib, AIG (AQSh) kompaniyasi bilan birga siyosiy xavf-xatarlardan sug‘urtalash bo‘yicha «O‘zbekinvest International» qo‘shma sug‘urta kompaniyasi ta’sis etilgani qayd qilib o‘tildi. Shu bilan birga, tashqi sarmoyalarni ko‘proq jalg qilish maqsadida

sug‘urtalashning tayanch stavkalari xalqaro amaliyotda qabul qilinganidan ancha past ekanligi ta’kidlandi.

### **3.Dastlabki sug‘urta tashkilotilarining vujudga kelishi.**

Hududimizning 3 ming yildan ortiq davr tarixi halqimiz hayotiga tahlika solgan xavf – xatarlar, shu hisobda tabiiy ofatlar, kutilmagan favqulotda hodisalar, yer qimirlashi, suv toshqini, yong’in, kuchli bo’ron, sel, chigirkalar hujumi, tog’dan tosh kqchishi, yer chqkishi o’z davrida iqtisodiyotimizga ulkan zarar keltirgani va ularni bartaraf qilish uchun munosib tadbirlar ko’rilganidan darak beriladi.

Sug‘urtanening kelib chiqishi yurtimiz tarixi bilan bog’langani uchun uning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sug‘urtanening kelib chiqishi haqida gapirganda dastlab sug‘urta puldan yoki moliyadan oldin kelib chiqqanmi, kreditdan oldin paydo bo’lganmi degan savol yuzaga keladi.

Ma’lumki, pulning kelib chiqishi haqida gapirganda dastlab natura asosida qabilalar o’rtasida moddiy ne’matlarni almashishi sodir bo’lganini e’tiborga olishimiz kerak. Har bir oila turmush tajribasiga asoslanib o’ziga kerakli oziq - ovqat, kiyim – bosh va har xil mahsulotlarni g’amlab qayishi lozim ekanligini tushungan. Agar g’amlangan mahsulotlar yetarli bo’lmasa qo’shnisidan yoki boshqa oilalardan qarz olgan. Oltin pul sifatida ishlatila boshlagandan keyin zarur narsalarni g’amlashda oltin, keyinchalik pul ishtirok etgan. Shu monosabat bilan natura va pul shaklida ijtimoiy jamg’arma hosil qilish yoki sug‘urta hodisasi vujudga kelganda bиргалашиb mablag’ to’plab, og’ir ahvoldan quto’arish odad bo’lgan. Shu monosabat bilan musulmonlar tomonidan qur’on asosida zakot berish joriy qilingan. Masalan qur’onda an’om surasida: “U (Olloh) uzumzor bog’lar, bo’stonlar, humroyu anvoyi mevali ziroatlar, zaytun, xilma-xil anorlar yaratgan.

Ularning mevalari pishganda undan tanavvul qilganlar, hosil yig’ilgan tunda uning ulushini bergenlar”. “Olloh yqliga va musofirlarga atab olloh tomonidan farz qilingan”.

Sug‘urta fondi tashkil qilish masalalari faqat zakot hisobidan emas, balki o’zaro pul to’lash yqli bilan ham amalga oshirilgan. Bu sug‘urta uzoq tarixga ega deb ko’rsatdik.

Melodiyaning ancha oldin hukumronlik qilgan Bobil podshoxi Hamurabbiy ham o’z qonunlariga ko’ra yirik savdo karvonlari jamoasi uzoq safarga chiqqanlarida talofat ko’rsalar, qaroqchilarga talansalar ko’rilgan zarar jamoa a’zolari o’rtasida barobar taqsimlanib, zararlarni qoplash ko’zda tutilgan, bu orqali maxsus fond tuzmasdan hamkorlikda fonsiz yordam yushtirilgan.

Bu ko’zda tutilgan qoida sug‘urta fondi tashkil qilinganga qadar kelib chiqqanidan darak beradi. Bu qoida asosida ko’zda tutilmagan holda hodisalar qaroqchilar xujumi, betob bo’lib qolish bilan bog’langan hodisalar natijasida kelgan zararlarni qoplash usuli bir mamlakatdan o’rganib ikkinchi mamlakat savdogarlar jamoalarida ham qo’llanilib, Markaziy Osiyo shaharlari bqylab, savdo aloqalarini amalga oshiruvchilarga ham qulaylik tug’dirgan. Fondsiz sug‘urta keyinchalik bu paytda rivojlanib karvonlar safarga otlana boshlaganlarda “sug‘urta fondi”ni shakllantirish rasm bo’la boshlagan. Aholining muxtoj tabaqalariga yordam berish shariat qonunlarida ko’zda tutilgan, nochorlarga, miskinlarga dastlab zakot hisobidan, zakot davlat siyosatiga aylantirilganidan keyin uning o’rniga sadaqa hisobidan fond tashkil qilinib, yordam yushtirilgan.

«Zakotnoma» kitobida zakot sifatida to’plangan mablag’lardan faqirlar, miskinlar, qarzdorlar, musofirlarga yordam berish ko’zda tutilgan. Bunda faqir deb o’zining kundalik ehtiyojlarni qoplashga qurbi yetmaganlar, miskin deb faqir kishidan ko’proq kambag’al kishilar ko’zda tutilgan. qarzdorlar haqida gap borganda, hayrli ishlarni bajaraman deb, o’zлari sabab bilan amalga oshirmay qarzga botganlar, musofirlarga safar jarayonida pul va mollarni yo’qotib muxtoj bo’lganlar kiradi.

1918 yilga qadar O’zbekiston hududida Rossiya sug‘urta monopoliyalarining filiallari (bo’limlari) tashkil qilinib, mahkamalar binolari, paxta va yog’ zavodlari, ulgurji savdo, transport va boshqa korxonalarini yong’in hamda turli falokatlardan sug‘urta qilar edilar. Shaxsiy sug‘urta

asosan rus millatiga mansub bo'lganlarga nisbatan joriy qilinib, yerli aholi diniy an'analarga sodiq qolib sug'urtaga juda kam tortilgan. Sug'urtalanish gunoh hisoblangan.

1918 yilda RSFSR hukumati tomonidan kiritilgan sug'urta monopoliyasi Turkiston respublikasiga ham joriy qilindi. Yangi iqtisodiy siyosat davrida birinchi sug'urta tadbirlari amalga oshirila boshlanib, 1924 yilda O'zbekiston Moliya komissarligi tarkibidagi sug'urta boshqarmasi tashkil etildi. Xususiy korxonalar, dehqon xo'jaligiga tegishli mulklar sug'urtalana boshlandi. Asosiy majburiy sug'urta, ayniqsa, imoratlarni yong'indan saqlash, ishsizlik va chorikorlik sug'urtalari ham joriy

etildi. Birinchi besh yillik davrida Rossiya O'zbekistonni paxta bazasiga aylantirishni

ko'zlab, jamoa xo'jaliklarini sug'urtalashga alohida ahamiyat berdi. Shaharlarda imoratlarni yong'indan sug'urtalashga alohida ahamiyat berildi. Keyingi yillardan boshlab mol-mulk sug'urtasi bilan birga SSSR qonunlari asosida shaxsiy sug'urta ham kiritildi. Bu qonunlarda O'zbekistonning iqtisodiy xususiyatlari kam e'tiborgaolindi. Kqp yillar mobaynida pilla hosili sug'urta bilan bog'lanmadni.

1921 yilning 6 oktyabrida qabul qilingan Dekretga muvofiq, Turkiston Respublikasida RSFSR Moliya Xalq Komissariati Davlat sug'urtasi bosh boshqarmasining vakolatli Boshqarmasi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi mintaqada sug'urta inspeksiysi va agentliklarini tashkil etish, mahalliy aholi vakillarini sug'urta agentligi vazifasiga jalb etish va sug'urtanening amaldagi turlari bqqicha shartnomalar tuzishdan iborat edi. Turkiston davlat sug'urta boshqarmasi to'laligicha RSFSR Moliya Xalq Komissariati davlat sug'urtasi Bosh boshqarmasiga bqqysunishi bilan bir qatorda, u tomonidan ishlab chiqilgan sug'urta qilish shartlari va qoidalarini so'zsiz bajarilishini ta'minlashi lozim edi.

1922 yilning 22 iyunida Turkiston Xalq Komissarlari Kengashi «Davlat mol-mulk sug'urtasi to'g'rissida» qaror qabul qildi. Mazkur qarorga muvofiq, davlat va ijara berilgan kommunal mol-mulkarni majburiy sug'urtasi joriy etildi.

Majburiy sug'urta dastlab, Turkistonning to'rtta shahrida, ya'ni Toshkent, Samarkand, Kattaqo'rg'on va Jizzaxda joriy qilindi. Shuni alohida qayd etish lozimki, yuqoridaq sug'urta turini joriy qilgunga qadar Turkistonda quyidagi ixtiyoriy sug'urta turlari bqqicha operatsiyalar amalga oshirilgan edi: kqchar va kqchmas mol-mulkni, korxonalarini va

tovarlarni yong'indan sug'urta qilish, qsimliklarni dql va boshqa stixiyali hodisalardan sug'urta qilish. 1922 yilning to'qqiz oyi davomida korxonalar mol-mulkini va tovarlarni yong'indan ixtiyoriy sug'urta qilish bqqicha 2616827 rubl miqdorida sug'urta badallari yig'ib olingan.

1924 yilda Turkiston ASSR ni O'zbekiston SSRga aylanishi munosabati bilan Moliya Xalq Komissariatida davlat sug'urtasi Boshqarmasi tashkil etildi. Shuningdek, mamlakatning viloyat, tumanlarida sug'urta inspeksiyalari ham tashkil etildi. Ammo, sug'urta sohasida malakali mutaxassislarni yo'qligi sug'urta ishini rivojlantirish yqlida katta to'siq bo'ldi. Uzoq qishloq tumanlarida sug'urta agentlari umuman yo'q edi.

Mamlakat hududida sug'urta ishini joriy etilishida mahalliy xususiyatlarni ko'proq hisobga olish, sug'urta tariflarini belgilash maqsadida 1924 yilning 11 noyabrida Xalq Komissarlari Kengashi «qishloq joylarda davlat sug'urtasi to'g'rissida» qaror qabul qildi. Ushbu qaror talablarini hayotga og'ishmay tadbiq qilish maqsadida mahalliy hokimiyat organlari huzurida doimiy ishlovchi sug'urta komissiyalari faoliyat ko'rsata boshladidi. Bu komissiya zimmasiga qishloq joylarda davlat sug'urtasining hamma turlarini rivojlantirish bqqicha choratadbirlar ishlab chiqish, qishloq sug'urtasi yuzasidan turli ko'rinishdagi takliflar kiritish vazifasi yuklatilgan edi. Yuqoridaqilarni umumlashtirib, bayon etilganlarga shunday yakun yasash mumkinki, sho'ro hokimiyyati o'rnatilishining dastlabki yillarida Turkiston hududida Davlat sug'urtasini o'rnatish bqqicha tegishli ishlar olib borildiki, bu o'z navbatida, o'sha davrda olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga mos kelar edi.

1930 yillar boshida davlat sug'urtasi muassasalari tomonidan amalga oshirilgan ayrim sug'urta turlari bekor qilindi. Chunonchi, sho'ro Markaziy Ijroiya qo'mitasi va Xalq Komissarlari Kengashining 1931 yil 3 fevraldagi «Davlat sug'urtasidagi o'zgarishlar

to'g'rissida»gi qaroriga ko'ra, davlat korxonalarini va muassalariga tegishli mol-mulkarni majburiy hamda ixtiyoriy sug'urta qilish asossiz ravishda bekor qilindi. Faqat, tuman va qishloq miyosidagi sanoat korxonalarini mol-mulkinigina sug'urta qilishga ruxsat berildi. Sug'urta ishi tabiiy va boshqa stixiyali hodisalar tufayli ko'rilgan zararlarni

qoplashga mqljallangan samarali vosita sifatidagi ahamiyatini deyarli butunlay yo'qotdi. Ushbu fikrni isbotlash uchun quyidagilarni bayon etish yetarlidir. Davlat korxonalarini mol-mulkiga tabiiy va boshqa stixiyali hodisalar tufayli zarar

etkazilganda, ushbu zararlar davlat byudjeti hisobidan qoplanadigan bo'ldi. Shu yerda ta'kidlash zarurki, sug'urta hodisalari riqy berishi natijasida ko'rilgan zararlar, qoidaga ko'ra sug'urtalanuvchilarning mablag'lari hisobidan shakllanadigan sug'urta fondlari vositasida qoplanadi. Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, davlat hokimiyati yuqori organlarining savodsizligi sababli sug'urtaning Xalq xo'jaligidagi ahamiyatiga yetarli darajada baho berilmadi. Sho'ro hukumatining 1930 yil 6 oktyabridagi

qaroriga muvofiq, sug'urta sohasini butunlay tugatish uchun chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, akvizitor-inkassatorlar bo'g'ini tugatildi. Shaxsiy sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish, aholi o'rtasida sug'urta badallarini yig'ish jamg'arma kassalariga va jamoat tashkilotlariga, xususan, davlat krediti va jamg'arma ishiga kqmak berish komissiyasiga yuklatildi. Shuningdek, mamlakatda sug'urta ishini tashkil etish va uni yuritish moliya muassalariga o'tkazildi.

nufuzi pasayib ketdi. Keyinchalik, sug'urta qoplamarini to'lashda jiddiy kamchiliklarga yql qo'yildi. Buning asosiy sababi, sug'urta ishi bu sohaga umuman aloqasi yo'q kimsalar qqliga berilib qo'yilganidir. Bunga qo'shimcha sifatida qayd etish kerakki, o'sha davrda sug'urta badallarini yig'ish ko'rsatkichi tamomila tushib ketdi va jamoa xo'jaliklarida sug'urta hodisalari sababli ko'rilgan ayrim zararlarni qoplash yillar davomida cho'zilib ketdi. Sug'urta shartlari va qoidalarini buzish hollari kuzatildi. Masalan, qishloq xo'jalik hayvonlarini nobud bo'lishi tufayli ko'rilgan zararlar, ushbu hayvonlar sug'urta hodisalari sababli nobud bo'lganmi yoki boshqa sababli

nobud bo'lganmi, bundan qat'iy nazar qoplanaverdi. Eng muhimi, moliya muassalariga belgilangan tartibdagi dalolatnomani taqdim qilishsa yetarli edi. qoidaga ko'ra, sug'urta

qoplamarini faqat, sug'urta shartnomalarida qayd etilgan hodisalar riqy bergandagina to'lanishi lozim edi.

1930-1933 yillarda sug'urta ishini tashkil etishda yql qquylgan jiddiy xato va kamchiliklar davlat hokimiyatini sug'urta sohasiga alohida e'tibor berishini talab etdi. Buning natijasi o'laroq, 1933 yilning 8 martida sho'ro partiyasining Markaziy qo'mitasi «qishloq xo'jaligi mol-mulki va ekinlarini sug'urta qilishdagi kamchiliklar to'g'rissida» qaror qabul qildi. Mazkur qarorda moliya muassasalarining sovuqqonligi oqibatida joylarda, ko'plab qishloq tumanlarida sug'urta davlatni ochiq aldashning bir shakli sifatida ildiz otib ketganligi qayd etildi. Shundan keyin, sug'urta tashkilotlari qaytadan tashkil etildi va moliya muassasalari ularga zarur hujjatlarni topshirishdi. Jamg'arma kassalari ham, o'z navbatida, shaxsiy sug'urta qilish bilan bog'liq ishlarni davlat sug'urta muassasalariga topshirishdi.

Tarixdan ma'lumki, ikkinchi jahon urushi boshlanishi munosabati bilan mamlakatning barcha moliyaviy resurslari mudofaani ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplashga sarflandi. Xususan, davlat sug'urtasining mablag'lari ham birinchi navbatda yuqorida ko'rsatilgan xarajatlarni moliyalashtirishga yqnaltirildi. 1941-1944 yillarda sobiq sho'ro davlat sug'urtasi davlat obligatsiyalarini sotib olish va foydadan ajratmalar shaklida 5,8 mlrd. rubl mablag'ni davlat byudjetiga o'tkazdi.

Biroq, bu degani sug'urta mablag'lari stixiyali hodisalar natijasida ko'rilgan zararni qoplashda ishlatilmadi, degan ma'noni anglatmaydi. 1942 yilda qishloq xo'jalik ekinlari va hayvonlarini majburiy sug'urtasi bqtyicha to'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdori bir muncha ko'tarildi. Shu bilan bir qatorda, mamlakatning kattagina qismininemis fashistlari tomonidan vaqtincha bosib olinishi sug'urta operatsiyalarini hajmini sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. Ushbu hududlarni bosqinchilardan ozod etish munosabati bilan davlat mol-mulk sug'urtasi

qaytadan tiklandi. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan sqng sobiq sho'ro hududining kengayishi joylarda tegishli davlat sug'urta muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.

Ikkinchi jahon urushi tugaganidan sqng davlat mol-mulk sug'urtasi uning javobgarlik hajmini oshirish, sug'urta shartlarini takomillashtirish yqli bilan rivojlandi. 1946 yilda shaxsiy sug'urtani rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida

hayotni aralash sug'urtasi bqtyicha belgilangan eng kam summalar bekor qilindi. 1946-1947

yillarda shaxsiy sug'urtaning barcha turlari bqtyicha ishlab chiqilgan yangi qoidalar qaytadan ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. 1947 yilda yakka tartibda tuzilgan sug'urta shartnomalari soni 2,5 mln.dan oshib ketdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, urushdan sqng shaxsiy sug'urta bilan bog'liq operatsiyalar sezilarli ravishda qdsi. Agar, 1945 yil oxirida shaxsiy sug'urtaning barcha turlari bqtyicha 1,8 mln. fuqaro sug'urta qilingan bo'lsa, 1953 yilning 1 yanvar holatiga bu ko'rsatkich 5,9 mln.ni tashkil etdi. 1956 yilda aholi mol-mulkini ixtiyoriy sug'urta qilish shartlari ancha o'zgardi. Fuqarolarga tegishli uy-joylarni majburiy sug'urtasi uni ixtiyoriy sug'urta qilish shartnomalari bilan to'ldirildi.

1958 yilda mamlakatda sug'urta ishini tashkil etish bilan bog'liq muhim voqeа yuz berdi. Davlat sug'urtasi muassasalarini boshqarish, bevosita, sobiq ittifoq respublikalari Moliya vazirliklarining ixtiyoriga berildi. Ushbu vazirliklar huzurida davlat sug'urta Bosh boshqarmalari tuzildi. Ular Moliya vazirliklariga bqysunish bilan bir qatorda ittifoq davlat sug'urtasi boshqaruviga ham bqysunadigan bo'lisdidi. Markaz davlat sug'urtasining asosiy vazifasi joylardagi sug'urta muassasalarini metodologik jihatdan ta'minlash va sug'urtalash qoidalarini ishlab chiqishdan iborat edi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 1960 yildan boshlab sug'urta operatsiyalari tor doirada amalga oshirila boshlandi, ya'ni, asosan, qishloq xo'jaligi va fuqarolarning mol-mulki sug'urtasi hamda shaxsiy sug'urta ishlari olib borildi. 1961-1970 yillarda mol-mulkarni ixtiyoriy sug'urta qilish va hayotni shaxsiy sug'urtasi nisbatan taraqqiy etdi. Masalan, ushbu davrda aholini ixtiyoriy sug'urtasi bqtyicha badallar miqdori 16 foizga qdsi yoki 2,5 mln. rubldan 15,3 mln. rublga oshdi. Bu qish asosan, shartnomalar sonining ko'payishi hisobiga ta'minlandi.

1968 yilning 1 yanvaridan jamoa xo'jaliklarining mol-mulkini majburiy sug'urta qilish joriy etilishi munosabati bilan davlat sug'urta muassasalarining ushbu sug'urta turi bqtyicha javobgarlik hajmi bir mucha kengaydi. Agar, ilgari qishloq xo'jalik ekinlari faqat nobud bo'lish va dql yog'ish natijasida shikastlanishdan sug'urta qilingan bo'lsa, endi ular issiqlik yetishmasligi, ortiqcha namlanish, qsimliklarga zararkunandalarni zarar yetkazishi va qurg'oqchilik hodisalaridan sug'urtalanadigan bo'ldi. Shuningdek, sug'urta hodisalarini rqy berishi oqibatida qishloq xo'jalik ekinlari nobud bo'lsa yoki zararlansa, to'lanadigan sug'urta qoplamasini sug'urtalangan mol-

mulkning 60 foizini tashkil etgan. Ilgari, bu ko'rsatkich 50 foiz darajasida edi.

1970-1980 yillarda oldingi yillari kuzatilgani kabi, aholi o'rtasida ixtiyoriy sug'urta qilish bqtyicha sug'urta badallari hajmi sezilarli ravishda qdsi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 1980 yilda ixtiyoriy sug'urta qilishning rivojlanish darajasi 1970 yildagiga nisbatan 2,5 marta oshdi. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, fuqarolarga tegishli mol-mulkarni sug'urta qilish bqtyicha shartlar o'zgardi hamda sug'urtalanadigan ob'ektlar miqdori kengaydi.

1970 yilda davlat xo'jaliklari mol-mulkini majburiy sug'urta qilishni joriy etilishi sug'urtani rivojlanishida muhim o'zgarish yasadi. Yuqorida bayon etganimizdek, 1930 yilda davlatga qarashli korxonalar mol-mulkarni sug'urta qilish to'xtatilgan edi. Usha davrda bu chora shu bilan tushuntirilgan ediki, davlat mol-mulki davlat byudjeti mablag'lari hisobidan doimo sug'urta qilingan edi. Sobiq sho'ro Oliy Kengashi Prezidiumining 1981 yil 2 oktyardagi Farmoniga muvofiq, 1983 yilning 1 yanvaridan fuqarolarning uy-joylari majburiy sug'urtaga olindi. Uy-joylar yer osti suvining ko'tarilishi, sel, sunami, isitish tuzilmasining ishdan chiqishi natijasida

zararlanganda sug'urta qoplamlari to'lanishi majburiy sug'urta qilish shartlarida ko'zda

tutildi. Bundan tashqari, bu davrda sug'urtaning yangi turlari joriy etildi. Masalan, pensiyani qo'shimcha sug'urta qilish. Ushbu sug'urta turini keng xalq ommasiga qulay bo'lismashni ta'minlash maqsadida, sug'urta zahirasining yarmi byudjet mablag'lari hisobidan shakllantirildi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 1985 yilda aholini ixtiyoriy sug'urta qilish bqqicha shartnomalar soni 7095,8 mingdan oshdi va bu, 1980 yilda tuzilgan

shartnomalar sonidan 1456,5 mingta ko'pdir.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki, sobiq sho'ro hokimiyati hukmron bo'lgan sharoitda sug'urta, asosan, tor doirada amalga oshirilgan. Kqplab mol- mulklar va ob'ektlar sug'urtaga tortilmagan.

1991 yilning noyabr oyida «Mol-mulklarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'rissida» qonunning qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasida keng miqyosda davlatga tegishli bo'lgan korxonalarini ijara topshirish, ularni aktsionerlik jamiyatlariga aylantirish jarayoni boshlandi. Iqtisodiy islohotlar kuchli ijtimoiy siyosatni uyg'unlashtirish orqali bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Xususiyashtirishning birinchi bosqichida, ya'ni 1992-1993 yillarda, davlatga qarashli kichik korxonalar va uy-joy fondi eng kam narhlarda, asosan, korxonaning xodimlariga sotildi. Bu davrda 54000 korxona xususiyashtirildi, 18000 dan ortiq oilaviy korxonalar va 26000 ta aktsionerlik jamiyatni tashkil etildi. Shuningdek, mazkur bosqichda 700 dan ortiq davlat qishloq xo'jaligi korxonalarini jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi.

Ma'lumki, ilgari hamma korxonalar davlatning ixtiyorida bo'lanchligi tufayli, ularni har xil noxush hodisalaridan sug'urta qilishga ehtiyoj bo'lman. Sababi, ushbu korxonalarga sug'urta hodisalari natijasida zarar yetkazilsa, bu zararlar davlat mablag'lari hisobidan bemalol qoplanaverar edi. Ammo, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mol-mulklarni davlat ixtiyoridan chiqarish va xususiyashtirish natijasida nodavlat sektorida qn minglab korxonalarini paydo bo'lishi, o'z-o'zidan, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni sezilarli ravishda oshirdi. Negaki, ilgarigi tajribadan farqli o'laroq, nodavlat sektoridagi korxonalar stixiyali hodisalar tufayli zarar ko'rganda, bu zararlar davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanmaydi.

Yuqorida bayon etilganlarga qo'shimcha ravishda ta'kidlash lozimki, amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar sug'urta tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Davlat sug'urta tashkilotlariga raqobatbardosh xususiy sektorda mustaqil sug'urta kompaniyalari vujudga kela boshladi. Bu shubhasiz, ularning faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonun qabul qilishi talab etdi. 1993 yilning 6 mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi (hozirgi Oliy Majlis) «Sug'urta to'g'rissida» qonun qabul qildi. Ushbu qonun sug'urtani rivojlantirishning, sug'urta bozorini shakllantirishning

huquqiy asoslarini, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda sug'urtaning mavqeい va o'rmini belgilab berdi, fuqarolar va yuridik shaxslarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan talablari to'lio'roq qondirilishini kafolatlaydi, sug'urta munosabatlari barcha ishtirokchilarining manfaatlari himoya qilinishi va majburiyatlariga rioya etilishini ta'minladi. Shunisi diqqatga sazovarki, mazkur qonunda davlat sug'urtasining monopoliyasiga barham berildi. Boshqacha so'z bilan ifodalaganda, davlat sug'urta tashkilotlari va nodavlat sug'urta tashkilotlari uchun teng sharoitlar yaratildi.

1992-1994 yillarda iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida monopoliyaga barham berilish va xususiyashtirish jarayoni kuchayishiga qaramasdan, O'zbekiston sug'urta bozorida davlat sug'urta muassasalarining ustunligi saqlanib qoldi. Mamlakatning shahar va qishloq joylaridagi asosiy sug'urta operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi davlat sug'urta Bosh boshqarmasi va uning joylardagi bo'linmalari tomonidan amalga oshirildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1992 yilda davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan jami 2415,1 mln. rubl miqdorida sug'urta badallari yig'ib olingan. Bu ko'rsatkich 1991 yilda yig'ib olingan sug'urta badallaridan uch marta ko'pdir. Agar, ushbu davrda sug'urta badallari tarkibini chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, umumiyyajmida shaxsiy sug'urtaning ulushi kam ekanligini ko'ramiz. Xususan, 1991 yilda sug'urta badallarining umumiyyajmida shaxsiy sug'urtaning ulushi

38,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1992 yilda bu ko'rsatkich – 16,2 foizni tashkil etdi.

Buning asosiy sababi, pulning qadrsizlanishi va o'sha paytda ijtimoiy- iqtisodiy hayotda rqy bergan tangliklar bilan bog'liqdir. Shaxsiy sug'urta turi bqtyicha 1990 yilda 6915,9 ming shartnomalar tuzilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1992 yilda 2624,0 mingni tashkil etdi yoki shartnomalar soni 2,6 martaga kamaydi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, yuridik shaxslarning mol-mulkini ixtiyoriy sug'urta qilish iqtisodiy nuktai-nazardan samarali hisoblanadi. Chunki, iqtisodiy islohotlarning mohiyati ham ko'proq korxonalarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish

bilan chambarchas bog'liq. Bunday chora-tadbirlardan biri korxonalarni mol-mulkini ixtiyoriy sug'urta qilishdir. 1992 yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, davlat sug'urta organlari tomonidan yig'ib olingan jami sug'urta badallari hajmida mol-mulk sug'urtasining ulushi keskin kamayib ketdi.

1992-1994 va undan keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida majburiy sug'urta qilish bilan bog'liq operatsiyalarni o'tkazish faqat davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshirildi. Bunday sug'urta turlariga qishloq xo'jalik mol-mulkini sug'urtasi, fuqarolarni mol-mulkini sug'urtasi va yqlovchilarini baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urta qilishni o'z ichiga olgan edi. Shu yerda ta'kidlash zarurki, 1991 yilning 1 yanvaridan sobiq ittifoq hududida qishloq xo'jaligi korxonalari mol-mulkini majburiy sug'urta qilish bekor qilingan edi. Ammo, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblangani uchun, bu tarmoqqa qarashli mol-

mulklarni sug'urta qilish ishlari uzlusiz davom ettirildi. 1993 yilning oxirida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq, qishloq xo'jaligi

korxonalari mol-mulkini majburiy sug'urta qilish joriy etildi. niyalari faoliyat ko'rsatdi. Ular, davlat sug'urta tashkilotlaridan farqli o'laroq,

amaldagi sug'urta qilish qoidalarni ancha takomillashtirdilar. Jumladan, sug'urta badali stavkasini kamaytirgan holda sug'urta javobgarligi hajmini kengaytirdilar.

1992 yil davomida mamlakatda «Umid» qo'shma sug'urta kompaniyasi, «Inobat», «Ishonch», «Temir yqlchi» kabi bir qator nodavlat sug'urta tashkilotlari turli xil sug'urta operatsiyalarini amalga oshirdilar.

1993-1994 yillar davomida sug'urta sohasida monopoliyadan chiqarilish jarayoni bir muncha tezlashdi. 1994 yil oxirlarida mamlakat nodavlat sektorida 60 dan ortiq sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsata boshladi. 1993 yilda davlat sug'urta tashkilotilari tomonidan jami 26892,8 mln. rubl miqdorida sug'urta badallari yig'ib olingan va uning qariyb 81,3 foizi majburiy sug'urta turlaridan kelib tushgan.

Anio'roq qilib ta'kidlaydigan bo'lsak, ushbu kelib tushgan majburiy sug'urta badallarining 79,4 foizi yoki 21,4 mlrd. rubli qishloq xo'jalik korxonalarining mol-mulkini sug'urta qilishdan kelib tushgan. Mol-mulklarni ixtiyoriy sug'urta qilish va shaxsiy sug'urta turlari bqtyicha kelib tushgan badallar umumiyligi sug'urta tushumlarida tegishli ravishda 7,3 va 9,4 foizlarni tashkil etdi.

Ma'lumotlarga qaraganda, 1993 yilda davlat sug'urta muassasalari 12,8 mlrd. rublni bevosita sug'urta hodisalari tufayli ko'rilgan zararlarni qoplashga sarfladi.

1994 yilning 1 iyulida Moliya Vazirligi huzuridagi davlat sug'urta Bosh boshqarmasi fuqarolar tomorqalaridagi qishloq xo'jaligi ekinlari va ko'p yillik dov-daraxtlarni ixtiyoriy sug'urta qilish qoidalarni tasdiqladi. Bu qoidalarga ko'ra, kartoshka, sabzovat, poliz ekinlari, kqchatlar, tomorqada qstirilayotgan mevali, rezavor hamda boshqa ko'p yillik daraxt, buta – qsimliklar ixtiyoriy sug'urtaga olindi. Sug'urta badallarining stavkalari qishloq xo'jaligi ekinlari turlariga qarab belgilandi.

Masalan, bir yillik va ko'p yilik ekilgan o'tlar uchun sug'urta badalining stavkasi sug'urta summasiga nisbatan 7 foiz miqdorida belgilandi.

1993-1994 yillarda nodavlat sug'urta tashkilotlari ichida eng ko'p sug'urta operatsiyalarini amalga oshirgan hamda eng dastlabki nodavlat sektoridagi sug'urta kompaniyalaridan biri – «ARK sug'urta guruhi»dir. Bu kompaniya ilk marta 1991 yilning 21

fevralida «ASTROVAZ» nomi bilan rossiyalik hamkorlar yordamida tashkil etildi. 1992 yilning yanvar oyida Rossiyalik hamkorlar ta'sischilar safidan chiqarildi. Shu yilning 24 iyunida «ASTROVAZ» yopiq turdag'i aktsionerlik jamiyatiga aylantirildi. 1993 yilning mart oyidan boshlab bu tashkilot «ARK sug'urta guruhi» deb atala boshlandi. U, asosan, O'zbekiston hududida akkreditatsiya qilingan chet davlatlar vakolatxonalarini, elchixonalarining mol-mulkini sug'ortalash bilan shug'ullanmoqda. «ARK sug'urta guruhi» bilan bir qatorda 1992-1994 yillarda «Umid» osiyo sug'urta kompaniyasi ham nisbatan faol sug'urta qilish ishlarini amalga oshirdilar. Bu kompaniyaning asosiy ta'sischilari O'zbekiston Respublikasi hom-ashyo birjasi va Pokiston Islom Respublikasidan bo'lgan hamkorlardir. Ushbu kompaniya dastlab, eksport-import yuklarini, transport vositalarini sug'ortalashga ixtisoslashdi.

Keyinchalik «Umid» osiyo sug'urta kompaniyasi tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni o'z vaqtida qarz oluvchilar tomonidan qaytarib bera olmaslik tavakkalchilagini sug'urta qila boshladi. Hozirgi paytda «Umid» sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatini to'xtatgan.

Yuqorida bayon etilganlar shundan dalolat beradiki, O'zbekiston sug'urta bozorida davlat sug'urta tashkilotlari bilan bir qatorda xususiy, aktsionerlik va boshqa mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalari ham raqobat asosida faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Umuman, sug'urtaning insoniyat hayotidagi va iqtisodiyotning uzlusiz rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyati beqiyos. Buni e'tiborga olib, mamlakatimizda bozor infratuzilmasining ushbu bo'g'inini rivojlantirishga katta e'tibor berilyapti. Birgina 2002 yilda sug'urta sohasini rivojlantirish yuzasidan davlat miqyosida bir qator chora-tadbirlarning belgilanganligi fikrimizning tasdig'idir. Xususan, 2002 yilning 31 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining e'lon qilinishi sug'urta tizimini taraqqiy ettirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Mazkur Farmonga muvofiq, mulk shaklidan qat'iy nazar barcha sug'urta tashkilotlari 2002 yilning 1 fevralidan boshlab uch yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yil 27 noyabrda qabul qilgan qarori sohani rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston hukumati tomonidan sug'urta sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, sug'urta bozorini bosqichma-bosqich isloq qilish tamoyili amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning mustaqil rivojlanishi davrida sug'ortalashning huquqiy bazasiga va sug'urta sohasida bozor tuzilmasini rivojlantirishga poydevor qo'yildi, misol uchun sug'ortalashda tomonlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi va respublikada sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning tamoyillarini belgilovchi xalqaro andozalarga mos keluvchi hamda talablarga javob beruvchi O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'rissida»gi qonuni 2002 yil 5 aprelda qabul qilindi. Aytish kerakki, yangi qonun yurtimizda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarda o'tkazilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizda olib borilayotgan erkinlashtirishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu qonunning qabul qilinishi sug'urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va manfaatlarini himoyalashga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Sug'urta sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjati normalari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. Jumladan, rivojlangan chet mamlakatlardagidek bizda ham sug'urta xizmatlari bozori ikkiga ajratildi: hayotni sug'urta qilish bilan bog'liq xizmatlar bozori va umumiyligi sug'urta xizmatlari bozori. Hayotni sug'urta qilishga ixtisoslashgan tashkilotlar umumiyligi sug'urta turlarini o'tkazish, umumiyligi sug'urta turlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar esa hayotni sug'ortalash huquqiga ega bo'lmaydi. To'g'ri, bizda hayotni sug'urta qilish, ayniqsa, uzoq muddatli sug'urta turlarini rivojlantirishda ba'zi muammolar mavjud. Bu sug'urta turini amalga oshirish uchun fuqarolarda sug'urta tashkilotlariga ishonch bo'lishi bilan bir qatorda yetarli miqdorda mablag' ham bo'lishi zarur. Faqat hayot sug'urtasi bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda emas, balki korxona va tashkilotlarning mol-mulki hamda boshqa ixtiyoriy sug'urta turlarini o'tkazishda ham talay muammolar mavjud. Bu muammolarni hal etish sug'urta tashkilotlari va ularning salohiyatli mijozlari bo'lmish ko'pming sonli aholi, yuridik shaxslarning o'zaro hamkorligiga bog'liq. Jamiyatda aholi va korxona hamda tashkilot

rahbarlarining sug'urtaga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish lozim. Bu, o'z navbatida, sug'urta tashkilotlari tomonidan faol tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

1991- yilning noyabr oyida «Mol-mulkarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida» qonunning qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasida keng miqyosda davlatga tegishli bo'lgan korxonalarни ijaraga topshirish, ularni aksionerlik jamiyatlariga aylantirish jarayoni boshlandi. Iqtisodiy islohotlar kuchli ijtimoiy siyosatni uyg'unlashtirish orqali bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Xususiy lashtirishning birinchi bosqichida, ya'ni 1992-1993-yillarda, davlatga qarashli kichik korxonalar va uy-joy fondi eng kam narhlarda, asosan, korxonaning xodimlariga sotildi. Bu davrda 54000 korxona xususiy lashtirildi, 18000 dan ortiq oilaviy korxonalar va 26000 ta aksionerlik jamiyatni tashkil etildi. Shuningdek, mazkur bosqichda 700 dan ortiq davlat qishloq xo'jaligi korxonalarini jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi.

Ma'lumki, ilgari hamma korxonalar davlatning ixtiyorida bo'lganligi tufayli, ularni har xil noxush hodisalardan sug'urta qilishga ehtiyoj bo'lmas. Sababi, ushbu korxonalarga sug'urta hodisalarini natijasida zarar yetkazilsa, bu zararlar davlat mablag'lari hisobidan bemalol qoplanaverar edi. Ammo, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mol-mulkarni davlat ixtiyoridan chiqarish va xususiy lashtirish natijasida nodavlat sektorida o'n minglab korxonalarini paydo bo'lishi, o'z- o'zidan, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni sezilarli ravishda oshirdi. Negaki, ilgarigi tajribadan farqli o'laroq, nodavlat sektoridagi korxonalar stixiyali hodisalar tufayli zarar ko'rganda, bu zararlar davlat budgeti mablag'lari hisobidan qoplanmaydi.

Yuqorida bayon etilganlarga qo'shimcha ravishda ta'kidlash lozimki, amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar sug'urta tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Davlat sug'urta tashkilotlariga raqobatbardosh xususiy sektorda mustaqil sug'urta kompaniyalari vujudga kela boshladi. Bu shubhasiz, ularning faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonun qabul qilishi talab etdi. 1993- yilning 6 mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi (hozirgi Oliy Majlis) "Sug'urta to'g'risida" qonun qabul qildi. Ushbu qonun sug'urtani rivojlantirishning, sug'urta bozorini shakllantirishning huquqiy asoslarini, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda sug'urtaning mavqeい va o'mini belgilab berdi, fuqarolar va yuridik shaxslarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan talablari to'liqroq qondirilishini kafolatladi, sug'urta munosabatlari barcha ishtirokchilarining manfaatlari himoya qilinishi va majburiyatlariga rioya etilishini ta'minladi. Shunisi diqqatga sazovarki, mazkur qonunda davlat sug'urtasining monopoliyasiga barham berildi. Boshqacha so'z bilan ifodalaganda, davlat sug'urta tashkilotlari va nodavlat sug'urta tashkilotlari uchun teng sharoitlar yaratildi.

1992- 1994-yillarda iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida monopoliyaga barham berilish va xususiy lashtirish jarayoni kuchayishiga qaramasdan, O'zbekiston sug'urta bozorida davlat sug'urta muassasalarining ustunligi saqlanib qoldi. Mamlakatning shahar va qishloq joylaridagi asosiy sug'urta operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi davlat sug'urta Bosh boshqarmasi va uning joylardagi bo'linmalari tomonidan amalga oshirildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1992-yilda davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan jami 2415,1 mln. rubl miqdorida sug'urta badallari yig'ib olingan. Bu ko'rsatkich 1991-yilda yig'ib olingan sug'urta badallaridan uch marta

